




NAVOIY VILOYATI
YURIDIK TEXNIKUMI

RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY
KONFERENSIYASI MATERIALLARI

**YANGI O'ZBEKISTON
KONSTITUTSIYASI - INSON VA UNING
MANFAATLARINI TA'MINLASHNING
MUSTAHKAM POYDEVORI**

**“YANGI O‘ZBEKISTON KONSTITUTSIYASI - INSON
VA UNING MANFAATLARINI TA’MINLASHNING
MUSTAHKAM POYDEVORI”**

**“КОНСТИТУЦИЯ НОВОГО УЗБЕКИСТАНА - КАК
ПРОЧНАЯ ОСНОВА ОБЕСПЕЧЕНИЯ ЧЕЛОВЕКА И
ЕГО ИНТЕРЕСОВ”**

**“THE CONSTITUTION OF NEW UZBEKISTAN - AS A
SOLID BASIS FOR ENSURING A PERSON AND HIS
INTERESTS”**

**RESPUBLIKA ILMIY - AMALIY
KONFERENSIYA MATERIALLARI**

Navoiy - 2023

69	Mirzayeva Nigina Olimovna	JALOLIDDIN RUMIY FALSAFASIDA OILA VA JAMIYAT MASALALARI	304
70	Azizbek Mavlonov	NEW STAGE OF DEVELOPMENT OF LEGAL EDUCATION AND SCIENCE IN UZBEKISTAN	307
71	Ochilova Yulduzxon Nurilloevna	O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASINING YANGI KONSTITUTSIYASIDA DAVLAT TILI MASLALASI	320
72	Obidova Nodiraxon Oppoxo‘ja Qizi	YANGI O‘ZBEKISTON KONSTITUTSIYASI - FUQAROLIK JAMIYATI TARAQQIYOTINING BOSH OMILI SIFATIDA	322
73	Jumayev Firdavs Bekzod o‘g‘li	YANGI O‘ZBEKISTON KONSTITUTSIYASI - FUQAROLIK JAMIYATI TARAQQIYOTINING BOSH OMILI	325
74	Maxammatov Nodir G‘ulomovich	YURIDIK TA’LIMDA - TA’LIM UZVIYLIGI: MAVJUD MUAMMOLAR VA YECHIMLAR	329
75	Xudoyqulova Marjona Nodir qizi	O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI KONSTITUTSIYASIDA FUQAROLIK JAMIYATI MASALASI	333

JALOLIDDIN RUMIY FALSAFASIDA OILA VA JAMIYAT MASALALARI

Mirzayeva Nigina Olimovna
SamDCHTI mustaqil tadqiqotchisi
mirzayeva.nigina@bk.ru

Annotatsiya: Ushbu maqolada Sharqning buyuk faylasuf Jaloliddin Rumiyning ilmiy merosida, ijtimoiy - falsafiy qarashlari tizimida oila mustahkamligi masalalariga oid tarbiyaviy ahamiyatga molik fikrlar g'oyalarining ilmiy - nazariy ahamiyati xususida so'z boradi. Shuningdek, farzandlarni ham jismonan, ham ma'nan sog'lom qilib tarbiyalashda oilaning ahamiyatini oshirishga oid qarashlari tizimli tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: murosa, rashk fenomeni, milliy mentaletit, jamiyat, axloq, umuminsoniy qadriyatlar.

Biz bugun XXI asr texnika asrida, globallashuvning shiddatli buhronlari ostida yashamoqdamiz. Sharq xalqlarida oila qadimdan muqaddas hisoblangan va ko'plab didaktik manbalarda ham oila masalalariga to'xtalib o'tilgan. Bu masalalar haqida antik davr faylasuflari, Sharq mutafakkirlari, Markaziy Osiyo allomalari va G'arb faylasuflari ham o'z konsepsiyalarini yaratganlar. Mana shunday o'z konsepsiyasiga ega buyuk allomalardan biri bu Jaloliddin Rumiydur.

Mutasavvifning ilmiy merosi necha asrlar o'tsa hamki, insoniyatni ma'naviy yetuklikka undovchi va o'zligini, asliyatini anglashida ko'maklashuvchi jahonning durdona asarlari turkumidan munosib joy egallab kelmoqda. Mutafakkirning falsafiy - irfoniy qarashlarida oila mustahkamligi masalalariga ham alohida to'xtalib o'tilgan va alloma o'z qarashlarida jamiyat ma'naviy hayotida muhim omil hisoblanmish oilalarning mustahkamligi hamda farovonligi bevosita tomonlarning ham ijtimoiy, ham iqtisodiy jihatdan o'zaro tengligiga borib taqalishiga doir nazariyasini ilgari surgan. Barcha oilalarda ham uchraydigan iqtisodiy tangliklarni Mavlono bu ayb emas, balki, Tangrining er - xotin sabrini sinovchi imtihonidir, deya baholagan.

Jaloliddin Rumiyning shoh asari hisoblanmish "Masnaviyi ma'naviy" asari tarkibida turli mazmundagi hikoyatlaru masallar mujassamlashtirilgan, shuningdek, undagi voqealar rivoji ta'sirchanligini oshirishda, kulminatsion nuqtasini belgilashda Qur'oni Karim oyatlaridan ham samarali foydalanilgan. Xususan, oila, ayol va erkak munosabatlari, farzand tarbiyasi, ayollarga ehtirom ko'rsatish kabi masalalarga Rumiya ko'p o'rinlarda to'xtalib o'tgan. Bunday mavzudagi hikoyalar va masallar tarkibida ba'zan behayo, g'ayriaxloqiy munosabatlar haqida ham so'z ketsada, ularning yakunida Mavlono bu mavzuga boshqa to'xtalishga hojat qoldirmaydigan ravishda xotima yasaydi va bunday axloqsizliklarni qattiq qoralaydi.

Jaloliddin Rumiyning falsafiy qarashlarida oila mustahkamligi masalalariga oid tarbiyaviy ahamiyatga molik fikrlarni ko‘p uchratamiz. Rumiyning fikricha, oilani tuzish va buzish, ya‘ni oiladagi totuvlik ham, oiladagi notinchlik ham avvalo, er - xotonga bog‘liq. Agarki er - xotin o‘zaro ittifoqlikda yashashsa, ularga hech qanday tashqi omillar ta‘sir o‘tkazolmaydi. Mutasavvif shunday deydi: “Sen uni sevib talpinsang, u ham seni sevib, talpinadi. Sen uni yo‘qotish tadbirini qilsang, u ham zimdan sendan qutulish rejasini tuzadi. Devorni bir yog‘iga o‘tvolib buzishga kirishsang, u hadeganda ag‘anay qolmaydi. Modomiki, uni har ikki tomondan teshishga chandon urinsang, ikki yondan o‘yib kelayotgan ikkala aslaha ko‘p o‘tmay bir - biriga qovushadi.

Endi sen bilan u ayol orasidagi do‘st - dushman, begonalarning yaxshi - yomon nazaridan hosil bo‘lgan parda bir devorga o‘xshaydiki, bu - ayol bilan sening orangdir” [1. - B.60 - 61.]. Darhaqiqat, oila devorining mustahkam bo‘lishi, yoki aksincha, nurashi er - xotinning o‘zaro munosabatlariga bog‘liq bo‘lgan jarayondir. Bu haqda alloma shunday yozadi:

Kimki bo‘lgay hamzabonidin judo,
Bezabondir, garchi undan yuz navo.
Chunki gul ketsa, guliston qolmagay,
So‘ngra bulbul birla doston qolmagay [2. - B.8.].

Jaloliddin Rumi o‘zining falsafiy - irfoniy qarashlarida oila va er - xotin munosabatlari haqida so‘z yuritarkan, erkakni aqlga, ayolni esa nafsga qiyoslaydi. Chunki erkak kishi tabiatan og‘ir - bosiq bo‘lganligi tufayli oilada yuzaga keladigan turli muammolarga u aql nuqtai - nazaridan jiddiy yondashadi, uzoqni o‘ylab qaror qabul qiladi. Ayol kishi esa tabiatan yig‘iga moyil va hissiyotga beriluvchan bo‘lganligi tufayli ko‘p hollarda o‘z manfaatidan kelib chiqib keskin qarorlar qabul qiladi. Buning oqibatida esa oiladagi turli nizolar katta nadomat keltiradi deydi va rashk borasida ham to‘xtalib o‘tadi. Uning fikricha, barcha narsada me‘yor bo‘lgani kabi, rashkning ham chegarasi bo‘lmog‘i darkor. Me‘yoridan oshgan rashk turli fojealar va illatlarning doyasidir deydi hamda “Rashk har na qadar erkaklarning sifatlaridan biri bo‘lsada, undan voz kech. U (ayol) boshqa erkakning vasfini senga aytsa ham qizg‘anma, chunki sendagi yaxshi sifatlardan keyin yomon vasflar ham maydonga keladi”[4. - B.116.], deya ta‘kidlaydi. Shuningdek, ayol kishiga haddan tashqari ta‘qiqlaru cheklovlar qo‘yish ham yaxshilik alomati emas deydi alloma. Ayolni nazorat qilish va rashk qilishda erkak kishi me‘yorni unutmasligi lozimligini shunday izohlaydi: “Sen nima desang ham, demasang ham, ular o‘z bilganlaridan qolmaydi. Masalan, sen xotonga: “Ochiq - sochiq yurma, o‘ran” desang, unda o‘zini ko‘rsatish orzusi tobora ortadi. O‘z navbatida o‘rangan ayolni ko‘rishga xalq ham shuncha ishtiyoqmand bo‘ladi. Mazkur ish bilan sen ikki taraflama - ko‘rmoq va ko‘rilmoq istagini orttirmoqdasan” [5. - B.102.]. Mutafakkirning fikriga ko‘ra, bajarayotgan amali va qilmishining oqibatini oldindan ko‘ra oladigan va to‘g‘ri xulosa chiqara oladigan ayol ba‘zi erkaklardan ustundir. Shu o‘rinda Jaloliddin Rumi birovning ayoliga ko‘z tikadigan erkaklarni dayus deb ataydi va shunday yozadi:

O'zgalarning yoriga ko'z solganing,
Sen dayuslikni bo'yinga olganing [6. - B.228.].

Oila - muqaddas dargoh va u yillar davomida er - xotinning ahillikdagi hayoti natijasida yanada mustahkamlanadi. Er - xotin yillar davomida bir - birining xarakterini, tilini tushunib, hamzabon bo'lib yashashadi. Agar ulardan biri bevaqt vafot etsa (ketsa), ikkinchisi bezabon bo'lib qoladi, chunki uning tilini, ko'nglini ayolidek (eridek) hech kimsa tushuna olmaydi. Rumiyning fikricha, ro'zg'oridan yiroqlashgan, xiyonat ko'chasiga kirgan kishi o'zligidan ham yiroqlashadi. Hattoki, qushlar ham o'z iniga, o'z jinsiga talpinadi. Zero, o'z jinsingdan, ya'ni oilangdan boshqa inga, boshqa jinsga talpinishing boshingga muqarrar falokat keltiradi, deydi Mavlono. Jaloliddin Rumiylar oila mustahkamligi borasida fikr yuritarkan, o'z asarlarida "Yor ila yor ittifoqi xush erur" iborasini ko'p o'rinlarda faol qo'llaydi. Er va xotinni Mavlono bir o'rinda mahsi - kovushga qiyoslaydi, uning fikricha, kovush mahsiga mos bo'lmasa, ya'ni ulardan biri oyoqqa tor yoki keng bo'lsa, unda ular birgalikda juft bo'lolmaydi, natijada, ulardan biri yaroqsiz hisoblanadi. Oilada ham erkak va ayolning dunyoqarashi, xarakteri bir - biriga muvofiq bo'lmasa, bunday oila parokandalikka yuz tutmog'i muqarrar.

Yaxshi juft ersa juftga hamsifat,
Barcha ishlar hal bo'lur bomaslahat, [3. - B.77.]

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Jaloliddin Rumiylar. Majolisi sab'a. - T.: Yangi asr avlodi, 2018. 1 - majlis. - B.60 - 61.
2. Jaloliddin Rumiylar. Masnaviylar ma'naviylar. - T.: MERIYUS., 2010. 1 - daftar. - B.8.
3. Ko'rsatilgan asar. - B.77.
4. Ko'rsatilgan asar. - B.116.
5. Jaloliddin Rumiylar. Ichindagi ichindadir. - T.: Yangi asr avlodi, 2013. - B.102.
6. Jaloliddin Rumiylar. Hikmatlar. - T.: Sharq, 2008. - B.228.